

TAJNIS VA UNING NAVLARI: TOM TAJNIS, MURAKKAB TAJNIS, TAJNISI  
XAT, TAJNISI ZOYID

**Normatova Lobar Dilshod qizi**

Shahrisavz davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiyotida muhim o‘rin tutgan tajnis san‘ati va uning turlari — tom tajnis, murakkab tajnis, xat tajnis hamda tajnisi zoyid haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Har bir tur nazariy izohlar bilan birga mumtoz va zamonaviy adabiyotdan olingan misollar asosida yoritilgan. Tajnis san‘atining badiiy nutqdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tajnis, tom tajnis, murakkab tajnis, xat tajnis, tajnisi zoyid, mumtoz adabiyot, badiiy san‘at, tuyuq, jinsdosh so‘zlar.

**Annotation:** This article discusses the art of tajnis as an important stylistic device in classical Eastern literature, along with its types: complete tajnis, compound tajnis, graphic (orthographic) tajnis, and augmented tajnis. Each type is explained theoretically and illustrated with examples from classical and modern literary works. The role and artistic significance of tajnis in poetic language are also highlighted.

**Keywords:** Tajnis, complete tajnis, compound tajnis, orthographic tajnis, augmented tajnis, classical literature, poetic devices, homonyms, Turkic literature.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается художественный приём таджнис как важный элемент восточной классической литературы, а также его виды: полный таджнис, сложный таджнис, графический (письменный) таджнис и увеличенный таджнис. Каждый вид объясняется теоретически и иллюстрируется примерами из классической и современной литературы. Раскрывается значение таджниса в поэтической речи.

**Ключевые слова:** Таджнис, полный таджнис, сложный таджнис, графический таджнис, увеличенный таджнис, классическая литература, поэтические приёмы, омонимы, тюркская литература.

Sharq mumtoz adabiyotida muhim san‘atlardan biri tajnis san‘ati sanaladi. Ijodkorlar tomonidan g‘azallarda tajnis san‘atidan unumli foydalaniladi. Tajnis san‘ati mumtoz adabiyotda tuyuq janrini shakllantiradi. Tajnis deb baytda jinsdosh so‘zlardan ikki yoki undan ortiq tushunchalarni keltirishga aytiladi. Jinsdosh so‘zlar deb aytilishi va

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 03. Issue 02. March 2026

yoʻzilishi bir xil, ammo maʼnolari har xil boʻlgan soʻzlarga aytiladi. Mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy, Atoyi, Nodira, Mashrab, Ogahiy, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Amiriy, Qutb Xorazmiy, Nishotiy va boshqa shoir va shoirlarimiz tajnis sanʼati ishtirokida koʻplab ijod namunalari yaratgan. Zamonaviy adabiyotdan Maqsud Shayxzoda hamda “Ravshan”, “Xusrav va Shirin”, “Husn-u Dil” kabi dostonlarda ham tajnis sanʼatiga oid misralarni uchratamiz. Quyida tajnis sanʼati navlarini koʻrib chiqamiz.

Tom tajnis

Tom tajnis deb sanoyeʼ ilmida unli va undosh harflari bir xil boʻlgan jinsdosh soʻzlarga aytiladi. Tajnis turkiy tillar uchun oʻziga xos hodisa boʻlib, bu sanʼat avvalo xalq ogʻzaki ijodida paydo boʻlgan. Chunonchi, “Ravshan” dostonidan:

Qoʻlingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!

Nasihatim yod qilib ol, yolgʻizim,

Yolgʻiz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

Mazkur toʻrtlikning birinchi misrasidagi “ot” soʻzi “shuhrat, dong” maʼnosida, ikkinchi misrasidagi “ot” soʻzi “tashla, yoʻqot, voz kech” maʼnolarida, toʻrtinchi misradagi “ot” soʻzi miniladigan hayvon maʼnosida qoʻllanilgan.

Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” dostonidan:

Qoʻrirlar erdi elni bir yogʻoch yer,

Yovuq kim kelsa ul kiru yogʻoch yer.

Birinchi misradagi “yogʻoch” soʻzi masofa oʻlchovini ifodalagan. Ikkinchi misradagi “yogʻoch” esa “kaltak” maʼnosida kelgan.

Murakkab tajnis

Murakkab tajnis koʻrsatkichlarining biri yoki ikkalasi ikki soʻzdan iborat boʻladi. Masalan, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit turki” asaridan olingan quyidagi baytning birinchi misrasidagi jinsdosh ikki soʻzdan (“oʻt urung”), ikkinchi misradagi jinsdosh esa bir soʻzdan (“oʻturung”) iborat:

Oʻgʻlon aytti: “Ey eranlar, yot cherikka oʻt urung,

Yo borib avrat qumoshin kiyib, evda oʻturung.”(oʻt qoʻying / oʻtiring)

Sakkokiyning tubandagi baytida ikkala misradagi jinsdoshlar ham ikkitadan soʻzdan iborat:

Gar hajring o‘ti jon-u jigarga yoga keldi,  
Jonimga ne xush sharbati vasling yoga keldi.

Maqsud Shayxzodaning quyidagi to‘rtligida “baho-na” va “baho na?” so‘zlari murakkab tajnis ko‘rsatkichlaridir:

Vatan berar shoirga ishqni,  
Sho‘x qofiya unga bahona.  
Shu Vatandan shu‘la-nur olgan  
Misra uchun, ayt-chi, baho na?

Xat tajnis

Xat tajnis (yozuvdagi jinsdoshlik) so‘zning eski yozuvdagi ifodasiga nisbatan qo‘llaniladigan atama bo‘lib, bunda ikki jinsdosh so‘z yozuv harflari jihatidan bir xil (nuqtalar inobatga olinmaydi), ammo ma‘nolari har xil bo‘ladi.

Mavlono Nishotiyning “Husn-u Dil” dostonidan:

Chunki ko‘rub mushk ila bo‘yi gulob,  
Ani o‘qur mashk ila po‘yi kilob.  
Bu baytda uchta xat tajnis mavjud:  
mushk – mashk, bo‘y – po‘y, gulob – kilob.

Yana:

Bu yozibon shishayi jomi sharob,  
Ul o‘qug‘ay shussayi xomi sarob.

Bu yerda shisha – shussa, jomi – xomi, sharob – sarob so‘zlari xat tajnisdir.

Tajnisi zoyid

Tajnisi zoyid (orttirma tajnis) jinsdosh so‘zlarning birida bir harf ortiqcha bo‘lishi bilan yuzaga keladi.

Mavlono Nishotiyning “Husn-u Dil” dostonidan:

Chashm yozar onida ahli karam, (ko‘z)  
Chashma yozibdur ani, ey muhtaram. (buloq)

Amiriydan:

Xushk sohillar aro labtashna erding, zohido,  
Ichmading paymona, soqiy birla paymon etmading.

Bu yerda “paymona” va “paymon” so‘zlari tajnisi zoyid hisoblanadi.

Rashididdin Vatvot ta‘rifiga ko‘ra:

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 03. Issue 02. March 2026

“Tajnisi zoyid shundayki, ikki so‘z harf va tovush jihatdan o‘xshash bo‘ladi, biroq ulardan birining oxiriga qo‘shimcha harf orttiriladi.”

Xulosa qilib aytganda, tajnis san‘ati Sharq mumtoz adabiyotining eng muhim va badiiy jihatdan boy unsurlaridan biri hisoblanadi. Ushbu san‘at orqali shoirlar bir xil shakldagi, ammo turli ma‘nodagi so‘zlardan mahorat bilan foydalanib, asarning mazmunini chuqurlashtirgan va uning badiiy ta‘sir kuchini oshirganlar. Tajnisning tom tajnis, murakkab tajnis, xat tajnis va tajnisi zoyid kabi turlari esa ushbu san‘atning naqadar rang-barang va murakkab ekanini ko‘rsatadi.

Mumtoz adabiyot vakillari tajnisdan unumli foydalangan holda o‘z asarlarida nozik ma‘no o‘yinlarini yaratganlar, bu esa o‘quvchining tafakkurini kengaytirishga xizmat qilgan. Shuningdek, tajnis san‘ati nafaqat mumtoz, balki zamonaviy adabiyotda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini kuzatish mumkin. Demak, tajnis san‘ati o‘zbek adabiyotining badiiy boyligini namoyon etuvchi muhim vositalardan biri sifatida qadrlanadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy. Xamsa – Toshkent, 2005. Sayfi Saroyi. Gulistoni bit turki – Toshkent, 1999.
2. Qutb Xorazmiy. Xusrav va Shirin – Toshkent, 1980.
3. Mavlono Nishotiy. Husn-u Dil – Toshkent, 1985.
4. Maqsud Shayxzoda. Ravshan – Toshkent, 2000.
5. Amiriy. She‘riy to‘plamlar – Toshkent, 1990.
6. Sakkokiy. Divan – Toshkent, 1978.
7. Rashididdin Vatvot. San‘ati tajnis haqidagi ta‘riflar – Toshkent, 1982.

Research Science and  
Innovation House